

Kurbanova Layloning

**“Milliy va umuminsoniy qadryatlar
asosida o’quvchilarning ekoturizm
madaniyatini shakllantirish”**

mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: P.f.n., dotsent A.Sh.Muxsiyeva

Muammoning dolzarbligi

- Bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ular ongiga barcha sohalardagi bilimlarni kiritmog'imiz lozim. Bular yoshlani ona vatanga, oilaga mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadryatlarni huramat qilish, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik jihatdan madaniyatini shakillantirishdir.

Sh.M.Mirziyoyev

Muammoning dolzarbligi

- Inson
- Tabiat

Muammoning dolzarbligi

- Bugungi kundagi O'zbekiston va umuman jahon ekologiyasida bo'layotgan inqirozlar, ekologiyaning insonga va inson omilining ekologiyaga ko'rsatayotgan ta'siri, keltiradigan zararli va foydali tomonlarini ochib berish va shu orqali yosh avlod tarbiyalanuvchilariga tabiatga mehr qo'yish uni asrab avaylash orqali butun bir insoniyat hayotini asrash mumkinligini tushuntirish va ekoturistik madaniyatni yuksaltirishda namoyon bo'ladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

- So'nggi yillarda ekologik ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq etishga qaratilgan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, ekologik ta'limning nazariy asoslari, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalari birmuncha chuqur o'rganilgan.

- Xususan, ekologik ta'limning nazariy asoslari, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalari birmuncha chuqur o'rganilgan. Jumladan, ekologik ta'limning nazariy asoslari rus olimi, akademik I.D.Zverev, tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish, Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyotiga oid muammolar prof. E.O.Turdiqulov, ekologik ta'limning pedagogik asoslari prof. A.N.Zaxlebniy, biologiyani o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim tarbiya berish muammolari prof. I.T.Suravegina kabi pedagog-olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shuningdek, L.Xudoyberdiev, M.Mirboboev va S.Salohiddinov (fizika ta'limi), A.T.Hayitov (geografiya ta'limi), SH.Avazov (ekologik o'lkashunoslik), V.N.Sattorov (mehnat ta'limi), I.Ismatov va B.Qulto'raev (kimyo ta'limi), M.G'.Nishonboeva (biologiya ta'limi), N.O'.Nishonova (adabiy ta'lim), I.T.Misliboev va N.M.Egamberdieva (kasb-hunar ta'limi), A.Meliboev (pedagogik ta'lim) ishlarida xususiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish mazmuni yoritilgan. X.A.Rahmatova (sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigienik tarbiya), Sh.Mirzahmetova (boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga qiziqishni shakllantirish), N.Sh.Bozorova (talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish), M.M.Aliqulova (tabiatshunoslik darslarida O'rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlaridan foydalanish) F.U. Jumaeva (kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish, geografiya ta'limi misolida) lar ekologik ta'lim-tarbiyani tashkil etishning turli jihatlarini tadqiq etganlar.

- **Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.**
O'quvchilarda ekoturistik madaniyatni shakillantirish va tabiatga ongli munosabatda bo'lishni tarbiyalash.
- **Bitiruv malakaviy ishining predmeti.**
O'quvchilarda ekoturistik madaniyatni tarbiyalashning usul va vositalari o'rgatish jarayoni.
- **Bitiruv malakaviy ishining obekti.** O'rta ta'lim o'quvchilari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- 1. Mavzuga oid pedagogik-psixologik manbalarni o'rganish va tahlil qilish.
- 2. Maktabning hududi va uning atrofidagi ekologik holatni baholash.
- 3. O'quvchilardagi ekologik bilim va tasavvurlar bilan tanishib ularni baholash.
- 4. O'quvchilarda ekoturistik madaniyatni tarbiyalash bilan bog'liq chora-tadbirlar, metodikalar ishlab chiqish va ularni o'tkazib natijalarni tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi:

- O'zbekiston Respublikasi
- Konstitutsiyasi,
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
- Farmonlari va ekologik xavfsizlikka oid asarlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» gi, tabiat boyliklariga nisbatan tejamkorlik, mas'uliyatlilik va ulardan oqilona foydalanish haqidagi qonunlari va qarorlari;
- Biosfera va noosfera haqidagi ta'limotlar;
- Sharq va g'arb mutaffakirlarining fikrlari va boshqa ilmiy manbaalar

- **Bitiruv malakaviy ishining yangiligi** Shundan iboratki maktab o'quvchilarida ekoturistik madaniyatni tarbiyalashni shakl metodlari, usullari va vositalarini ishlab chiqish. Tadqiqotning amliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash bo'yicha tavsiya etilgan shakl va metodlar, komil insonni tarbiyalashga yordam beradi va taklif etiladigan uslubiyatdan o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakillantirishda. Atrof muhitdan oqilon afoydalanishga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakillantirish.

- **Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:**
- Ta'limiy ta'rbiyaviy ishlarni tashkil etish va olib borishda milliy va umuminsoniy qadryatlarni yoshlar ongida shakillantirib, tabiat, atrof olam, ekotizimga munosabatini o'zgartirishga qaratilgan yangi usullarni yaratish va foydalanilishga tatbiq etish .

- **Bitiruv malakaviy ishining shakl va metodlari:**

- Ma'ruza, Suhbat, O'yin, kichik ekskursiya, So'rovnomalar. Interfaol metodlar, asissment metodi, milliy tarbiya metodlari(hikoya,o'tmishga nazar) va ekskursiya

- **Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:**
- Ushbu bitiruv malakaviy ish reja asosida mavzu doirasida ma'lumotlar bilan yoritilgan bo'lib , kirish, uch bob, paragraflar, boblar bo'yicha xulosalar, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Xulosa

O'quvchi-yoshlarda ekoturizm madaniyatini shakllantirishning milliy, umuminsoniy, ma'naviy, tarixiy, siyosiy, tarbiyaviy ahamiyati, pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalarning bolalar bilan oilada tarbiyaviy faoliyat olib borish xususiyatlari, bolalarda tabiatga ijobiy munosabatlarni shakllantirish, atrof muhitga e'tiborli bo'lish sifatlarini kamol toptirish.

- Tadqiqotda o'quvchilarda ekoturizm madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish o'quvchilarning tafakkuri va madaniyatiga tegishli ma'lum pedagogik talablarning milliy va umumbashariy axloqiy-madaniy va ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllantirish jarayoni sifatida baholandi.